



MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-Dekabr 2021

Ma'qullandi: 20-Dekabr 2021

Chop etildi: 25-Dekabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Avesto, Zardusht, Vandidot, Anaxita

“Avesto” zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, uning ilk sahifalari Zardusht tomonidan 584-529 yillar orasida Amudaryo sohillarida yaratilgan. Keyinchalik Janubiy Eronda otashparastlik dinining ulamo-kohinlari tomonidan to'ldirilib, takomillashtirilgan. Bu kitob 12 ming ho'kiz terisiga bitilgan. “Avesto” zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lishi bilan birga, ilm-fan, hayotning barcha sohalari bo'yicha mukammal ma'lumot beradigan ulkan, eng ko'hna manba hisoblanadi. Grek olimi Pliniy “Avesto”ni 2million baytdan iborat (eramizdan oldingi 3-asr) degan edi. Biz undan Markaziy Osiyo, Eron va Ozarbayjon xalqlarining eng qadimgi marosimlari; urf-odat, e'tiqod, ibodat paytida qiroat qiladigan oyatlari, diniy marosimlarda ijro etiladigan qo'shiqlari, minglab xalq ohanglari haqida ma'lumot

“AVESTO”NING ZAMONAVIY TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI

Gulnora Nazarova Mirzayevna¹

¹ Koson tumani 83-maktab o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.5812977>

ANNOTATSIYA

Avesto kitobi ilm-fan, hayotning barcha sohalaridan mukammal ma'lumot beradigan manba. Kitobda qadimgi xalq og'zaki ijodiga taaluqli yagona syujetlar-dostonlar parchalar mavjud. „Avesto“da yer suv, zamin, badan, kiyim-kechak, oziq-ovqatni toza tutishga alohida e'tibor berilgan. „Avesto“da uy jonivorlarini toza tutishga e'tibor katta bo'lgan.

olamiz. Bundan tashqari, kitobda qadimgi xalq og'zaki ijodiga taaluqli yagona syujetlar-dostonlar, parchalar mavjud; Jamshid, Kayumars, Mitra, Anaxita, Ardivissu ra, Zahhoklar bilan bog'liq atamalar tilga olinadi; “Mavzui suxan-alohida hijo va she'r haqida ma'lumot beriladi. Chorvadorlar, dehqonchilik, savdo-sotiq-u hunarmandchilik bilan bog'liq juda ko'p lavhalar, mulohazalar bayon etiladi. Bundan tashqari mazkur obida iqtisodiy hayot, jug'rofiya, falakiyot, ilmi -nujum, ijtimoiyot, biologiya, falsafa va tibbiyotdan ko'p qimmatli ma'lumotlar mavjud. “Avesto”dagi tibbiy dalillar ota-bobolarimizning tabobatga doir qarashlari rim, yunon va arab tabobatidan ko'hnaoq va uzoqroq tarixga ega ekanligini ko'rsatadi. Undagi tibbiy ma'lumot ko'proq Vandidotning turli joylarida uchraydi. “Avesto”dagi tibbiy fikrlarni taxminan quyidagicha tasnif etish mumkin;



1. Tashreh (Anatomiya) va Mizoj (Fiziologiya),

2. Bemorliklarning oldini olish vositalari,

3. Kasalliklar haqidagi ma'lumotlar,

4. Bemorlarni davolash yo'llari,

5. Tabiblarning axloqi va tabobatga oid ba'zi qonun-qoidalar.

"Avesto"da yer, suv, zamin, badan, kiyim-kechak, oziq-ovqatlarni toza tutish va saqlashga alohida e'tibor berilgan. Unda qabristonlarni shahar va qishloqlardan yiroqda tashkil etish, uni o'rab qo'yish, murdasha'ylarni maxsus tozalikka rioya qilishi, murda tekkan libos, yerlarni qatron qilish xususida fikrlar mavjud. Inson va hayvon o'ligi tushgan soy, ariq, hovuz, quduqlarni bir necha marotaba qatron qilish (suvga to'ldirib bo'shatish, yomg'ir suvi bilan yuvish, to'ldirib bo'shatish) ta'kidlanadi.

"Uning (suvning) ustida uch hayvon ichadigan suvga aylanadi "Axuramazda javob berdi; -O't-o'lanlar hamda mevali daraxtlar ekilgan, suvlari hamisha ravon bo'lgan zamin eng yaxshi zamindir. Ayol va farzandlar sarson va sargardon yuradigan yer eng yomon yerdir. Yerni iflos qilgan va uni asrash qoidalarini buzgan shaxslar "400 qamchi urish jazosiga" giriftor qilinadi. Inson yashayotgan xonadagi obrezxonada yuvinish va cho'milish qat'iy man etilgan.

"Avesto"dagi muhit tozaligini saqlash va kasalliklarni oldini olish vositalarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin;

1. Axlatlarni berkitish, ifloslangan joylarni tuproq, tosh, kul bilan mikroblar o'ldirilgan yoki kamaytirilgan.

2. Otash issiqlik va sovuqlik yo'li bilan yo'qotish, "Avesto"da otash poklovchi va ofatni ketkazuvchi vosita. U bilan hatto kiyim-kechaklarni zararsizlantirilgan.

3. Kimyoviy yo'l; kul, sirka, sharob, turli giyohlar (isfand, mixak, sadaf, piyoz, aloe, sandal) tutatish yo'li bilan; bularning ko'pi hozir ham mikroqushdir.

"Vandidod"ning 5-bobida shamol, hayvon, parranda, pashsha orqali turli kasalliklarning tarqalishi qayd etilgan. Kasallik tarqatadigan hayvon va hasharotlarni yo'qotishga da'vat etilgan holda "Aves-to"da uy jonivorlarini ehtiyot qilishga da'vat kuchli bo'lgan. "Avesto"ning "Vandidod" degan bo'limida suv yoki itini o'ldirgan kishi 10.000 bursum, 10.000 ruhiyatini tetiklashtiradigan o'simlik bargi berishi lozim. Shuningdek, u 1000 echkiemar, 1000 ta, kasal tarqatuvchi pashshani o'ldirib gunohini yuvishi lozim.

"Vandidod"ning 5- va 17- boblarida doimiy badantarbiya bilan shug'ullanish, kunda yuz-qo'lni bir necha marta yuvish, sochni toza tutib, tirnoqlarni tez-tez olib turish tavsiya qilinadi. Inson me'yor bilan doim to'q yurishi, ko'proq go'sht iste'mol qilishi lozimligi uqtirilgan.

"Avesto"da issiqlik, sovuq havo, ochlik va poraxo'rlik, ruhiy iztirob, buzilgan taomni yeyish, tozalikka rioya qilmaslik, Axriman yuborgan qurt, pashsha va boshqa hasharotlar, yomon havo kasalliklarning aso-siy manbai deyiladi. Unda 9999 kasallikni Axriman paydo qildi deyiladi.

"Avesto"da qarindoshlarning o'zaro oila qurishi man etilgan. Qavm va urug' qonini toza tutish, avlodni benuqson saqlash uchun shunday qilingan. Ko'p



bolali oilalarga davlat hisobidan nafaqa tayinlash lozimligi qayd etilgan, bir yo'la 2-3 ta tuqqan ayollar mukofot olishga sazovor deb uqtirilgan.

“Vandidod”da kasalliklarni rejim, parhez, duoya, dori, jarrohlik yo'llari bilan davolash aytiladi va dorivor o'simliklarning nomi berilgan. Shira, barg, don, gul, meva, buta, giyoh ildizi va hokazo. Ular za'faron, koski, kunjut, ko'knori, sipond, zira, piyoz, siyohdon a(sedana), savsan, qatron, nayshakar, turp, xurmo, sabzi, behi, shakar, asal, zaytun moyi va boshqalardan tayyorlangan. Jarrohlikda asl sharobga nasha qo'shib berib behush qilib kesishgan. Buqrotning tabiblar qasamyodi haqidagi fikridan bir necha asr burun “Avesto”da tabiblarning maxsus qasamnoma keltirilgan; tabobat raman-ilon zahar sochayotgan idish-jom tasviri

ham ilk bor shu kitobda tasvirlangan. Unda qadimgi kishilarning o'rtacha umri 800-900 yil bo'lishi ayrim odamlarning yashash sharoiti, muhitga qarab 1400 yilgacha umr ko'rishi mumkinligi uqtirilgan.

Xullas, qadimgi ajdodlarimiz yaratgan “Avesto” dunyodagi eng qadimiy, noyob bilimlar xazinasidir. Unda olamdagi barcha diniy, dunyoviy, tabiiy fanlar bo'yicha teran mulohazalar mavjud. Yuqorida „Avesto”da berilgan tibbiyotga oid fikrlardan kelib chiqadigan bo'lsak, bugungi kunda COVID-19 pandemiyasidan saqlanish chora-tadbirlari ko'rsatib o'tilgan. Shu sababdan bu fikrlardan kelib chiqib, barchamiz “Avesto”da ko'rsatilgan tibbiy ko'rsatmalarga amal qilishimiz kerak! COVID-19dan EHTIYOT BO'LING! Siz bizga keraksiz!

Izoh; “Avesto”ning “Vandidod” bo'limi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 4-sinf Odobnoma, Oysha Hasanboyeva,
2. “O'zbek Pedagogikasi antologiyasi” (tuzuvchi mualliflar; K.Hoshimov, S.Ochil) T.O'qituvchi, 1996-yil.
3. Bolalar Ensiklopediyasi. 1-kitob. Davlat ilmiy nashriyoti. 2019.